



Received: April 13, 2026
Accepted: May 24, 2026
Available online: May 25, 2026

Oydin Xudoyberdiyeva

Tayanch doktorant
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Denov, O'zbekiston

Oydin Khudoyberdiyeva

PhD Student
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Denau, Uzbekistan
E-mail: oydinmarjin92@gmail.com
ORCID iD: 0009-0008-8209-6136

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ILMIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN AFORISTIK BIRLIKLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

STYLISTIC FEATURES OF APHORISTIC EXPRESSIONS BASED ON SCIENTIFIC VOCABULARY IN ENGLISH AND UZBEK

ANNOTATSIYA

ABSTRACT

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklarning stilistik xususiyatlari qiyosiy-tipologik va lingvostilistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda "aforistik birlik" tushunchasi keng lingvistik birlik sifatida talqin qilinib, uning tarkibiga muallif aforizmlari, hikmatli so'zlar, ilmiy-didaktik mazmundagi qisqa umumlashtiruvchi ifodalar, shuningdek, ayrim paremiologik birliklar kiritiladi. Bunday yondashuv aforizm, maqol, hikmatli so'z, sentensiya va maksima kabi yaqin janrlar o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlashga imkon beradi.

This article examines the stylistic features of aphoristic units formed on the basis of scientific lexis in English and Uzbek from comparative-typological and linguostylistic perspectives. The concept of an "aphoristic unit" is interpreted as a broad linguistic category that includes authorial aphorisms, wise sayings, concise scientific-didactic generalizations, sententiae, maxims and certain paremiological units. Such an approach makes it possible to analyze not only aphorisms in the narrow sense, but also structurally and semantically related expressions that convey generalized intellectual, scientific and cognitive meanings.

Maqolaning asosiy maqsadi ilm, bilim, fan, tafakkur, tajriba, nazariya, amaliyot, haqiqat, knowledge, science, theory, practice, experience kabi ilmiy-kognitiv leksemalar ishtirokida shakllangan aforistik birliklarning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun aforistik birliklarning lingvistik tabiati, ularning ilmiy leksika bilan munosabati, ilmiy tushunchalarning obrazli ifodalanish mexanizmlari hamda ikki til materialidagi o'xshash va farqli jihatlari o'rganildi.

The main aim of the study is to identify the semantic, stylistic and pragmatic characteristics of aphoristic units containing scientific-cognitive lexical items such as knowledge, science, thinking, experience, theory, practice, truth, ilm, bilim, fan, tafakkur, tajriba, nazariya, amaliyot and haqiqat. The research material consists of English and Uzbek aphoristic units selected according to several criteria: the presence of a scientific lexical component, semantic conciseness, figurativeness, generalized meaning and didactic-pragmatic orientation. The study applies comparative-typological, linguostylistic, semantic, contextual and descriptive methods of analysis.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillarida qo'llanadigan, ilmiy yoki ilmiy-kognitiv mazmunga ega bo'lgan aforistik birliklar tanlab olindi. Materiallarni saralashda birlik tarkibida ilmiy leksik komponentning mavjudligi, ifodaning ixchamligi, obrazlilik, umumlashtiruvchi mazmuni va didaktik-pragmatik yo'nalishi asosiy

The findings show that aphoristic units with scientific content in both languages express complex scientific and cognitive concepts in a concise, figurative and pragmatically effective form. Stylistic devices such as metaphor, antithesis, parallelism, repetition, gradation, paradox and

mezon sifatida belgilandi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, lingvostilistik, semantik, kontekstual va tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy mazmundagi aforistik birliklarda metafora, antiteza, parallelizm, takror, gradatsiya, paradoks va ellipsis kabi stilistik vositalar faol qo'llanishini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi "Knowledge is power" kabi birliklarda konseptual ixchamlik va mantiqiy umimlashtirish yetakchi o'rin egallasa, o'zbek tilidagi "Bilim – taraqqiyot kaliti", "Tajriba – haqiqat mezon" kabi birliklarda didaktik mazmun, gnoseologik yo'nalish va tarbiyaviy ta'sir kuchliroq namoyon bo'ladi. Har ikki tilda ilmiy leksika aforistik kontekstda faqat terminologik ma'no bilan cheklanmay, ko'chma, obrazli va pragmatik jihatdan ta'sirchan mazmun kasb etadi. Tadqiqot natijalari stilistika, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: aforistik birlik, ilmiy leksika, metafora, antiteza, parallelizm, semantik transformatsiya, lingvostilistik tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, pragmatik ta'sirchanlik, ilmiy-kognitiv leksema.

ellipsis play an important role in strengthening their semantic density and expressive potential. English aphoristic units, for example "Knowledge is power", are mainly characterized by conceptual conciseness, logical generalization and abstract reasoning. Uzbek units such as "Bilim – taraqqiyot kaliti" and "Tajriba – haqiqat mezon" more clearly reveal didactic meaning, gnoseological orientation and educational influence. In both languages, scientific lexis goes beyond its direct terminological meaning and acquires figurative, evaluative and pragmatic significance. The results of the study may be useful for stylistics, comparative linguistics, linguoculturology, translation studies and the analysis of scientific-popular discourse.

Key words: aphoristic unit, scientific lexis, metaphor, antithesis, parallelism, semantic transformation, linguostylistic analysis, comparative-typological analysis, pragmatic effect, scientific-cognitive lexical item.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda aforizm va aforistik birliklar faqat badiiy tafakkur mahsuli sifatida emas, balki ilmiy, publitsistik, didaktik hamda ommaviy kommunikatsiyada faol qo'llanadigan ixcham matniy birliklar sifatida ham o'rganilmoqda [Crystal, 2017; 187]. Aforistik ifoda murakkab fikrni qisqa, obrazli, mantiqiy va ta'sirchan shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. G.Morson aforizmni mazmuniy zichlik, fikriy yakunlanganlik va qisqa shaklda ifodalangan umimlashtiruvchi xulosa sifatida talqin qiladi [Morson, 2012; 423]. Shu jihatdan aforistik birliklar tilning nafaqat estetik, balki kognitiv, kommunikativ va didaktik imkoniyatlarini ham namoyon etadi.

O'zbek tilshunosligida maqol, matal, hikmatli so'z va aforistik ifodalar xalq tafakkuri, milliy tajriba va madaniy xotira bilan bog'liq birliklar sifatida talqin qilinadi. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedov tomonidan tuzilgan "Hikmatnoma"da o'zbek maqollarining izohlanishi ularning faqat badiiy vosita emas, balki xalqning hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlarini jamlovchi birlik ekanini ko'rsatadi [Shomaqsudov & Shorahmedov, 1990]. Sh.Safarov kognitiv tilshunoslikda til birliklari inson tafakkuri, bilim zaxirasi va konseptual dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [Safarov, 2006; 18]. N.Mahmudov esa tilni xalq tafakkuri va madaniy idrokining ifodachisi sifatida o'rganish zarurligini qayd etadi [Mahmudov, 2012; 10]. Shu nuqtayi nazardan, ilmga oid aforistik birliklar ilmiy-kognitiv mazmunning milliy-madaniy ifodasini ochishga xizmat qiladi.

Ilm, bilim, fan, tafakkur, nazariya, amaliyot, tajriba va *haqiqat* kabi ilmiy-kognitiv tushunchalarning aforistik birliklar tarkibida qo'llanishi mazkur birliklarning semantik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday birliklarda ilmiy leksika odatdagi terminologik ma'noda emas, balki ko'chma, obrazli va umumlashtiruvchi mazmunda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "Knowledge is power" ifodasi bilimni insonning intellektual va ijtimoiy salohiyatini belgilovchi kuch sifatida talqin qiladi. O'zbek tilidagi "Bilim – taraqqiyot kaliti" birlikida esa bilim taraqqiyot sari yo'l ochuvchi vosita sifatida metaforik ma'no kasb etadi. Bu kabi misollar ilmiy leksikaning aforistik kontekstda denotativ ma'nodan konnotativ va obrazli ma'noga o'tishini ko'rsatadi.

Aforizm tushunchasi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika, paremiologiya va lingvokulturologiya doirasida turlicha izohlanadi. Tadqiqotchilar aforizmni qisqalik, obrazlilik, mazmuniy zichlik, umumlashtiruvchanlik, didaktik yo'nalish va pragmatik ta'sirchanlik kabi belgilar asosida tavsiflaydilar [Mieder, 2004; 3; Norrick, 1985; 45]. L.Ivanov aforizmning lingvistik tabiatini uning ixcham shaklda mustaqil fikr ifodalashi, umumlashgan mazmunni tashishi va kommunikativ jihatdan ta'sirchan bo'lishi bilan bog'laydi [Ivanov, 2021; 1]. A.Xui esa aforizmni tarixiy-madaniy tajribani qisqa va fikriy jihatdan zich ifodalovchi nutq shakllaridan biri sifatida baholaydi [Hui, 2019; 2].

Shu bilan birga, aforizm maqol, hikmatli so'z, sentensiya va maksima kabi yaqin janrlar bilan muayyan umumiyliklarga ega. Maqol va aforizm o'rtasidagi janriy farqlar, shuningdek, "ta'lim" va "bilim" konseptlariga oid paremalarning ingliz va o'zbek tillaridagi lingvomadaniy xususiyatlari Z.R. Narmuratov tadqiqotida ham yoritilgan [Narmuratov, 2022]. Ularning barchasida qisqalik, umumlashtiruvchanlik va didaktik mazmun kuzatiladi. Biroq aforizm odatda mualliflik darajasi, fikrning individuallashtirilganligi va kontekstual qo'llanish xususiyati bilan maqol hamda paremiologik birliklardan farqlanadi. Maqol xalq tajribasiga asoslangan barqaror birlik bo'lsa, aforizm ko'pincha muayyan muallif yoki intellektual an'ana bilan bog'liq bo'ladi. Hikmatli so'z esa mazmunan aforizmga yaqin bo'lsa-da, uning janriy chegaralari nisbatan kengroqdir.

Mazkur maqolada "aforistik birlik" termini keng ma'noda qo'llanadi. Unga muallif aforizmlari, mashhur shaxslarga nisbat beriladigan hikmatli fikrlar, ilmiy mazmundagi qisqa umumlashtiruvchi ifodalar hamda ayrim maqol va paremiologik birliklar kiritiladi. Bunday yondashuv tadqiqot materialini sun'iy ravishda toraytirmaslik, shu bilan birga har bir birlikning janriy maqomini aniq ko'rsatish imkonini beradi. Shu sababli muallifi aniq bo'lmagan yoki bahsli birliklar muayyan shaxsga qat'iy nisbat berilgan aforizm sifatida emas, balki "aforistik birlik", "xalq maqoli", "parafraza" yoki "nisbat beriladigan ifoda" sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv tahlilning ilmiy aniqligini saqlash, aforizm va unga yaqin janrlar o'rtasidagi chegaralarni aniqlashtirish uchun muhimdir.

Ilmiy leksika aforistik birlik tarkibida alohida semantik yuklamaga ega bo'ladi. Bunday birliklarda *knowledge, science, theory, practice, experience, truth* kabi inglizcha leksemalar hamda *ilm, bilim, fan, nazariya, amaliyot, tajriba, haqiqat*

kabi o'zbekcha leksemalar faqat atash vazifasini bajarmaydi. Ular bilish jarayoni, inson tafakkuri, amaliy tajriba, ijtimoiy taraqqiyot va haqiqatni anglash bilan bog'liq murakkab tushunchalarni ifodalovchi obrazli komponentga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy leksika aforistik birliklarda semantik transformatsiyaga uchraydi: terminologik yoki umumleksik ma'no kengayib, gnoseologik, didaktik va pragmatik mazmun bilan boyiydi.

Ingliz va o'zbek tillarida ilmiy leksika ishtirokidagi aforistik birliklarning tahlili ikki yo'nalishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bunday birliklar ilmiy tushunchalarning xalqona, obrazli va kommunikativ jihatdan ta'sirchan shaklda ifodalanishini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ular ikki tilning madaniy-semantik xususiyatlarini qiyoslash imkonini beradi. Ingliz tilidagi aforistik birliklarda ko'pincha konseptual ixchamlik, mantiqiy umumlashtirish va abstrakt tafakkurga yo'naltirilganlik ustunlik qiladi. O'zbek tilidagi birliklarda esa didaktik mazmun, axloqiy-tarbiyaviy yo'nalish, xalqona obrazlilik va gnoseologik umumlashtirish nisbatan faolroq namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalarda tahlili aforizmlar va aforistik birliklar turli jihatlardan o'rganilganini ko'rsatadi. D.Kristal va D.Devi ingliz tilining stilistik imkoniyatlarini tahlil qilish jarayonida ixcham va ekspressiv birliklarning kommunikativ ta'sirini alohida ta'kidlaydi [Crystal & Davy, 1969; 195]. I.Galperin stilistik vositalarning matn mazmunini kuchaytirishdagi rolini badiiy va publitsistik nutq materiallari asosida izohlaydi [Galperin, 1977; 32]. Aforizmlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ularning umumiy lingvistik, madaniy, adabiy va terminologik xususiyatlari nisbatan keng yoritilgan [Kudryashova, 2016; 170; Odyntsova & Kondratieva, 2019; 52]. Shuningdek, o'zbek tilidagi aforizmlar milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va xalqona dunyoqarashni ifodalovchi birliklar sifatida ham o'rganilgan [Rixsiyeva, 2022; 30]. Ingliz va o'zbek tillaridagi aforistik birliklarning semantik-struktur, stilistik hamda lingvomadaniy xususiyatlari N.Mamataliyeva va D.Baratova tadqiqotlarida alohida yoritilgan [Mamataliyeva, 2024; Baratova, 2025]. Aforizmning lingvokulturologik xususiyatlari, uning paremiologik birliklar bilan munosabati va pragmatik vazifalari yuzasidan ham bir qator tadqiqotlar mavjud. Biroq mavjud ishlarning aksariyatida aforizmlar umumiy adabiy, madaniy yoki paremiologik birlik sifatida talqin qilinadi.

Ayniqsa, ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklarning ikki til materiali asosida qiyosiy-tipologik va lingvostilistik tahlili yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda aforizmning umumiy semantik va stilistik belgilari yoritilgan bo'lsa-da, ilmiy-kognitiv leksemalarning aforistik kontekstda qanday semantik transformatsiyaga uchrashi, qaysi stilistik vositalar orqali obrazlilik hosil qilishi va bu jarayonda ingliz hamda o'zbek tillari o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar yuzaga kelishi alohida muammo sifatida keng tadqiq etilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu maqolaning tadqiqot zaruratini belgilaydi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ingliz va o'zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklarning stilistik imkoniyatlarini qiyosiy asosda aniqlash zarurati bilan izohlanadi. Bunday tahlil aforistik birliklarning lingvostilistik tabiatini chuqurroq anglash, ilmiy tushunchalarning obrazli ifodalanish mexanizmlarini

aniqlash hamda turli tillarda ilmiy-kognitiv mazmunning qanday pragmatik vazifa bajarishini ko'rsatish imkonini beradi. Ingliz va o'zbek tillarining turli til oilalariga mansubligi esa tadqiqotning tipologik ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki bu ikki tilda ilmiy leksikaning aforistik birliklar tarkibida namoyon bo'lishi umumiy universal xususiyatlar bilan birga milliy-madaniy belgilarni ham ochib beradi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklarning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik hamda lingvostilistik yondashuv asosida aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun aforistik birlik tushunchasining lingvistik va stilistik tabiatini aniqlash, ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklarning asosiy belgilarini tavsiflash, ingliz va o'zbek aforistik birliklarida qo'llangan metafora, antiteza, parallelizm, takror, gradatsiya, paradoks va ellipsis kabi stilistik vositalarni tahlil qilish, ilmiy leksemalarning aforistik kontekstdagi semantik transformatsiyasini ochib berish, shuningdek, ingliz va o'zbek ilmiy-aforistik birliklarining o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash vazifalari belgilandi.

TADDIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot sifat jihatidan yo'naltirilgan lingvistik tahlil tamoyillariga asoslandi [Hyland & Shaw, 2016; 12]. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, lingvostilistik, semantik, kontekstual va tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar aforistik birliklarning leksik tarkibi, ma'no tuzilishi, stilistik ifoda vositalari va kommunikativ vazifalarini kompleks o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot materiali ingliz va o'zbek tillarida qo'llanadigan ilmiy yoki ilmiy-kognitiv mazmunga ega aforistik birliklardan tashkil topdi. Materiallarni tanlashda *ilm, bilim, fan, tafakkur, tajriba, nazariya, amaliyot, haqiqat, knowledge, science, theory, practice, experience, truth* kabi leksemalar asosiy leksik mezon sifatida belgilandi. Tahlilga kiritilgan birliklar aforistik to'plamlar, paremiologik manbalar, izohli lug'atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar, shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida keng qo'llanadigan hikmatli ifodalar asosida saralandi.

Materialni tanlashda bir nechta mezonga tayanildi. Birinchidan, birlik tarkibida ilmiy yoki ilmiy-kognitiv leksema mavjud bo'lishi talab qilindi. Ikkinchidan, ifodaning ixchamligi, obrazlilik va umumlashtiruvchi mazmunga egaligi hisobga olindi. Uchinchidan, birlikning didaktik-pragmatik yo'nalishi, ya'ni bilim, tafakkur, tajriba, nazariya yoki amaliyotga oid umumlashtiruvchi xulosa ifodalashi e'tiborga olindi. Shu asosda tahlil materiali faqat mavzuga bevosita aloqador birliklar bilan chegaralandi.

Tadqiqotda "aforistik birlik" tushunchasi keng qamrovli ishchi termin sifatida qo'llanildi. Shusababli tahlilga faqat muallifaforizmlari emas, balki mashhur shaxslarga nisbat beriladigan hikmatli fikrlar, xalq maqollari, ilmiy-didaktik mazmundagi qisqa umumlashtiruvchi ifodalar ham kiritildi. Biroq mazkur birliklarning janriy maqomi bir xil deb baholanmadi. Muallifi aniq bo'lgan birliklar "muallif aforizmi", muallifligi bahsli bo'lgan birliklar "nisbat beriladigan ifoda", xalq orasida barqaror qo'llanadigan birliklar esa "xalq maqoli" yoki "paremiologik birlik" sifatida izohlandi. Bunday tasnif

aforizm, maqol, hikmatli soʻz va parafraza oʻrtasidagi chegaralarni sunʼiy ravishda aralashtirib yubormaslik uchun muhim hisoblandi.

Materialni saralash jarayonida ayrim cheklovlar ham belgilandi. Tadqiqot doirasiga umumiy axloqiy yoki hayotiy mazmunga ega, biroq ilmiy-kognitiv leksemalarni oʻz ichiga olmaydigan hikmatli soʻzlar kiritilmadi. Shuningdek, faqat emotsional taʼsirga ega, lekin ilm, bilim, nazariya, amaliyot, tajriba, haqiqat kabi tushunchalar bilan bevosita bogʻlanmagan birliklar tahlil materiali sifatida olinmadi. Muallifligi aniq tasdiqlanmagan birliklarda qatʼiy mualliflik daʼvosi ilgari surilmadi; ular “nisbat beriladigan birlik” yoki “aforistik ifoda” sifatida talqin qilindi.

Qiyosiy-tipologik tahlil metodi ingliz va oʻzbek tillaridagi ilmiy-aforistik birliklarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun qoʻllanildi. Ushbu metod yordamida birliklarning leksik tarkibi, sintaktik tuzilishi, stilistik ifoda vositalari va pragmatik vazifalari ikki til materiali asosida solishtirildi. Xususan, ingliz tilidagi *knowledge, science, theory, practice, experience* kabi leksemalar oʻzbek tilidagi *ilm, bilim, fan, nazariya, amaliyot, tajriba* kabi birliklar bilan qiyoslandi. Qiyosiy tahlil ilmiy mazmunning har ikki tilda qanday obrazli vositalar orqali ifodalanishini aniqlashga xizmat qildi.

Lingvostilistik tahlil metodi aforistik birliklarda qoʻllangan stilistik vositalarning vazifasini ochib berishga qaratildi. Tahlil davomida metafora, antiteza, parallelizm, takror, gradatsiya, paradoks va ellipsis kabi vositalarning ilmiy mazmunni obrazli, ixcham va taʼsirchan shaklda ifodalashdagi oʻrni oʻrganildi. Masalan, “*Knowledge is power*” birlikida *knowledge* leksemasi *power* tushunchasi bilan bogʻlanib, bilimning ijtimoiy va intellektual kuch sifatidagi talqinini yuzaga chiqaradi. “*Bilim – taraqqiyot kaliti*” birlikida esa *bilim* tushunchasi kalit metaforasi orqali taraqqiyotga olib boruvchi vosita sifatida ifodalanadi [Wales, 2011; 263].

Semantik tahlil metodi ilmiy leksemalarning aforistik kontekstdagi maʼno oʻzgarishlarini aniqlash uchun qoʻllanildi [Amoseva, 2015; 28]. Bu jarayonda *ilm, bilim, fan, tajriba, haqiqat, knowledge, science, theory, practice, experience* kabi leksemalarning denotativ, konnotativ va obrazli maʼnolari oʻzaro taqqoslandi. Tahlil ilmiy leksikaning aforistik birlik tarkibida oddiy terminologik vazifa bilan cheklanmasligini, balki kengroq gnoseologik, didaktik va pragmatik mazmun kasb etishini koʻrsatishga qaratildi. Masalan, tajriba leksemasi ayrim birliklarda oddiy hayotiy amaliyot maʼnosidan chiqib, haqiqatni tekshirish mezonini sifatida talqin qilinadi.

Kontekstual tahlil metodi aforistik birliklarning qoʻllanish muhiti va kommunikativ vazifasini aniqlashda qoʻllanildi. Ilmiy mazmundagi aforistik birliklar akademik, didaktik, publitsistik va ilmiy-ommabop diskurslarda turli vazifalarni bajaradi. Akademik diskursda ular nazariy fikrni ixchamlashtirish va umumlashtirishga xizmat qiladi. Didaktik diskursda bilim olishga undash, oʻquvchi yoki talabaning intellektual faolligini kuchaytirish vazifasini bajaradi. Publitsistik va ilmiy-ommabop diskursda esa murakkab ilmiy tushunchalarni keng auditoriyaga tushunarli, obrazli va esda qolarli shaklda yetkazishga yordam beradi [Halliday, 1978; 112; Halliday & Hasan, 1976; 4; Swales, 1990; 58].

Tavsifiy tahlil metodi tadqiqot davomida aniqlangan lingvistik, semantik va stilistik xususiyatlarni tizimli bayon qilish uchun qo'llanildi. Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy-aforistik birliklarning asosiy belgilari, stilistik vositalari, semantik transformatsiyalari va pragmatik vazifalari umumlashtirildi [Biber et al., 1998; 4]. Natijalar jadval va izohli tahlil shaklida taqdim etilishi ko'zda tutildi. Bu esa tadqiqot materialini tartibli ko'rsatish, o'xshash va farqli jihatlarni aniq ajratish hamda qiyosiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash maqsadida tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy-kognitiv leksemalar ishtirokidagi aforistik birliklar saralandi. Keyingi bosqichda ularning janriy maqomi aniqlashtirildi: muallif aforizmi, nisbat beriladigan ifoda, xalq maqoli yoki ilmiy-didaktik umumlashtiruvchi birlik sifatida tasniflandi. So'ngra har bir birlik tarkibidagi ilmiy leksema, asosiy stilistik vosita, semantik mazmun va pragmatik vazifa alohida tahlil qilindi. Yakuniy bosqichda ingliz va o'zbek tillaridagi birliklar o'zaro qiyoslanib, umumiy va farqli xususiyatlar ajratildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklar bir qator muhim lingvostilistik xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Avvalo, bunday birliklar ilmiy-kognitiv tushunchalarni ixcham, obrazli va umumlashtiruvchi shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. *Ilm, bilim, fan, tafakkur, tajriba, nazariya, amaliyot, haqiqat* kabi leksemalar aforistik kontekstda odatiy terminologik ma'nodan chiqib, kengroq gnoseologik, didaktik va pragmatik mazmun kasb etadi. Ingliz tilidagi *knowledge, science, theory, practice, experience, truth* kabi leksemalar ham shunga o'xshash tarzda faqat ilmiy atama sifatida emas, balki bilish jarayoni, aqliy faoliyat, tajriba va haqiqatni anglash bilan bog'liq umumlashtiruvchi mazmunni ifodalaydi.

Tahlil qilingan materiallarda ingliz va o'zbek aforistik birliklari o'rtasida umumiy jihatlar bilan birga muayyan farqlar ham kuzatildi. Umumiy jihat shundaki, har ikki tilda ilmiy mazmun metafora, antiteza, parallelizm, takror, gradatsiya, paradoks va ellipsis kabi stilistik vositalar yordamida obrazli ifodalanadi. Farqli jihat esa ushbu vositalarning qo'llanish darajasi, semantik yuklamasi va pragmatik yo'nalishida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi aforistik birliklarda konseptual ixchamlik, mantiqiy umumlashtirish va abstrakt tafakkurga yo'naltirilganlik kuchliroq ko'zga tashlansa, o'zbek tilidagi birliklarda didaktik mazmun, pand-nasihat ruhi, qadriyatga asoslangan xulosa va gnoseologik yo'nalish nisbatan faolroq namoyon bo'ladi.

Metafora ilmiy mazmundagi aforistik birliklarda eng faol qo'llanadigan stilistik vositalardan biridir. Aforizmlarda fikrni bayon etish jarayonida bir narsa, hodisa yoki harakat nomining boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chirilishi tez-tez uchraydi. Tilshunoslikda bu hodisa metafora atamasi bilan izohlanadi. Sh.Safarov "Tilshunoslik terminlari lug'ati"da metaforani biror narsa, hodisa, harakat yoki belgiga xos nomning boshqa obyektga ko'chirilishi sifatida ta'riflaydi. Metaforik ko'chimning yuzaga kelishida qiyoslanayotgan obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik asosiy omil hisoblanadi

[Safarov, 2023; 165]. Masalan, ingliz tilidagi *“Knowledge is a treasure, but practice is the key to it”* aforistik birlikida bilim *“treasure”* – xazina obrazi orqali ifodalanadi. Bu yerda knowledge leksemasi oddiy ma’lumot yoki axborot ma’nosida emas, balki inson tafakkuri va hayotiy tajribasini boyituvchi bebaho qadriyat sifatida talqin qilinadi. Aforizmning ikkinchi qismida practice leksemasi *“key”* – kalit metaforasi bilan bog‘lanadi. Bu esa bilimning amaliyot orqali ochilishi, ya’ni nazariy bilim faqat amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy natija berishini anglatadi. Demak, mazkur birlikda bilim va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik metaforik vositalar orqali ixcham, obrazli va ta’sirchan tarzda ifodalanagan. Bu holat ilmiy leksikaning aforistik birlik tarkibida obrazli ifoda vositasiga aylanishini ko‘rsatadi [Lakoff & Johnson, 2003; 41; Gibbs, 1994; 6; Kövecses, 2010; 4; Kövecses, 2020; 23].

Antiteza ham ingliz va o‘zbek aforistik birliklarida ilmiy mazmunni kuchaytiruvchi muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. *Antiteza* so‘zi yunoncha antithesis – qarama-qarshi qo‘yish degan ma’noni anglatadi [Madvaliyev, 2020; 88] Qarama-qarshiliklar orqali ifoda etilayotgan aforizmlarni tushunish yanada oson va yengil bo‘ladi, chunki ikki xil tabiatga ega so‘zlar yohud jarayonlar o‘zaro taqqoslanib ifodalanadi. *“Theory without practice is empty, practice without theory is blind”* mazmunidagi birlikda theory va practice leksemalari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi. Bunda nazariya va amaliyot bir-biriga zid hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida talqin qilinadi. O‘zbek tilidagi *“Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r – mingni”* xalq maqolida esa jismoniy kuch va bilim o‘rtasidagi qarama-qarshilik antiteza orqali ifodalanadi. Mazkur birlikda bilim jismoniy kuchdan ustun qo‘yilib, uning ijtimoiy-amaliy ahamiyati ta’kidlanadi.

Parallelizm ingliz va o‘zbek aforistik birliklarida fikrning tartibli va ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi Parallelizm ingliz tilidagi ilmiy-kognitiv mazmundagi aforistik birliklarda ham fikrning izchil va ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi *“To know what you know and what you do not know, that is true knowledge”* aforizmida *“what you know”* va *“what you do not know”* qismlari o‘zaro parallel sintaktik qurilish hosil qiladi. Mazkur birlikda *“know”* va *“knowledge”* leksemalarining takroriy qo‘llanishi bilim konseptini markazga chiqaradi. Aforizmida haqiqiy bilim faqat insonning bilgan narsalarini anglashida emas, balki bilmagan narsalarini ham tan ola bilishida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Demak, parallelizm bu yerda fikrning ritmikligini ta’minlash bilan birga, bilim va bilimsizlik chegarasini anglash haqidagi gnoseologik mazmunni ham kuchaytiradi. O‘zbek tilidagi *“Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim”* aforizmida ham parallelizm ikki qismli tuzilish orqali namoyon bo‘ladi. Birinchi qismda so‘rab o‘rganish ijobiy baholansa, ikkinchi qismda bilmaganini so‘rashdan uyalish salbiy holat sifatida ko‘rsatiladi. Inglizcha aforizmida haqiqiy bilim insonning bilgan va bilmagan narsasini anglay olishida ko‘rinsa, o‘zbekcha aforizmida bilmagan narsani so‘rab o‘rganish ijobiy, so‘rashdan uyalish esa salbiy holat sifatida baholanadi. Demak, har ikki aforizmida parallelizm bilimning mohiyatini ochishga xizmat qiladi, biroq inglizcha misolda u gnoseologik anglashni, o‘zbekcha misolda esa didaktik-tarbiyaviy xulosani kuchaytiradi. Parallelizm bunday birliklarning esda

qolishini osonlashtiradi, didaktik va pragmatik ta'sirini kuchaytiradi hamda ularni og'zaki va yozma nutqda samarali qo'llash imkonini beradi [Crystal & Davy, 1969; 195].

Gradatsiya ilmiy-didaktik mazmundagi aforistik birliklarda fikrning bosqichma-bosqich kuchayib borishini ta'minlaydi. Ingliz tilidagi *"Read, mark, learn, and inwardly digest"* aforistik ifodasida bilimni egallash jarayoni ketma-ket harakatlar orqali beriladi: avval o'qish, keyin belgilash yoki e'tibor qaratish, so'ng o'rganish va nihoyat bilimni chuqur ichki anglash bosqichi ifodalanadi. Bu yerda har bir keyingi harakat oldingisidan mazmunan chuqurroq bo'lib, oddiy o'qish jarayoni ongli o'zlashtirish darajasiga ko'tariladi. O'zbek tilidagi *"Bilimni buyuk bil, uquvni chuqur; Bu ikkisi birla g'ofil uyg'onur. Uquvni tushunar ham bilimli bo'lar; / Bilimni uquvli tilakka etar"* misralarida ham gradatsion rivojlanish kuzatiladi. Dastlab bilim va uquv yuksak qadriyat sifatida talqin qilinadi. Keyingi bosqichda ular insonni g'aflatdan uyg'otuvchi kuch sifatida ko'rsatiladi. So'ngra uquv bilimga olib borishi, bilim esa insonni tilakka, ya'ni maqsadga yetkazishi ta'kidlanadi. Demak, inglizcha misolda gradatsiya bilimni o'zlashtirish bosqichlarini ko'rsatsa, o'zbekcha misolda bilim va uquvning inson kamoloti hamda maqsadga erishishdagi ahamiyati bosqichma-bosqich kuchaytirib boriladi.

Ingliz tilidagi *"The more I live, the more I learn. The more I learn, the more I realize, the less I know"* aforistik birlikida paradoksal mazmun bilim ortgani sari inson o'z bilmagan narsalari ko'pligini anglab borishi orqali yuzaga keladi. O'zbek xalq hikmatlarida uchraydigan *"Bilganim bir to'qqiz, bilmaganim to'qson to'qqiz"* aforistik birlikida ham bilim va bilimsizlik nisbati qarama-qarshi qo'yiladi. Har ikki misolda bilim cheksiz jarayon sifatida talqin qilinadi. Inglizcha birlikda bu holat yashash, o'rganish va anglash bosqichlari orqali ifodalansa, o'zbekcha birlikda bilgan va bilmagan narsalar miqdoriy qiyos orqali ko'rsatiladi. Demak, har ikki aforistik birlik misolida ham inson bilimining chegarasizligi va uning ilmga bo'lgan ehtiyoji paradoks orqali ochib beriladi.

Semantik tahlil ilmiy leksemalarning aforistik kontekstda transformatsiyaga uchrashini ko'rsatdi. *Knowledge, science, theory, practice, experience* kabi inglizcha leksemalar hamda ilm, bilim, tajriba, haqiqat, tafakkur kabi o'zbekcha leksemalar o'zining dastlabki denotativ ma'nosi bilan cheklanmaydi. Ular aforistik kontekstda konnotativ, obrazli va umumlashtiruvchi ma'no kasb etadi. Masalan, *"Tajriba – haqiqat mezon"* birlikida tajriba leksemasi oddiy amaliy faoliyat ma'nosidan kengayib, haqiqatni aniqlash va tekshirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Aforistik birliklarning janriy maqomini aniqlash ham tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. Tahlilga kiritilgan birliklarning barchasi tor ma'nodagi muallif aforizmi sifatida qaralmaydi. Ular orasida muallif aforizmlari, mashhur shaxslarga nisbat beriladigan ifodalar, parafrزالangan falsafiy fikrlar, xalq maqollari va ilmiy-didaktik umumlashtiruvchi birliklar mavjud. Shu sababli maqolada "aforistik birlik" termini keng qamrovli ishchi termin sifatida qo'llanildi. Bunday yondashuv aforizm, maqol, hikmatli so'z va parafraza o'rtasidagi janriy farqlarni hisobga olishga, shu bilan birga ularni umumiy lingvostilistik mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilishga imkon beradi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish maqsadida ilmiy-aforistik birliklarning asosiy lingvostilistik belgilari quyidagi mezonlar asosida tasniflandi:

Ilmiy leksika asosidagi aforistik birliklarning lingvostilistik tasnifi

Tahlil mezeni	Ingliz tilidagi xususiyatlar	O'zbek tilidagi xususiyatlar
Yetakchi ilmiy-kognitiv leksemalar	knowledge, science, theory, practice, experience, truth	ilm, bilim, fan, tafakkur, tajriba, nazariya, amaliyot, haqiqat
Asosiy stilistik vositalar	metafora, antiteza, parallelizm, ellipsis	metafora, antiteza, parallelizm, takror, gradatsiya
Semantik yo'nalish	konseptual ixchamlik, mantiqiy umumlashtirish, abstrakt tafakkur	didaktik mazmun, gnoseologik umumlashtirish, tarbiyaviy ta'sir
Pragmatik vazifa	ilmiy tushunchani ixcham va mantiqiy ifodalash	bilim olishga undash, tajriba va tafakkur ahamiyatini ta'kidlash
Madaniy-uslubiy belgi	individual fikr, ratsional xulosa, konseptual aniqlik	xalqona obrazlilik, pand-nasihat ruhi, qadriyatga yo'naltirilganlik

Jadvaldan ko'rinadiki, ingliz va o'zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklar umumiy stilistik xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning semantik va pragmatik yo'nalishida muayyan farqlar mavjud. Ingliz tilidagi birliklarda *knowledge, science, theory, practice, experience* kabi leksemalar konseptual ixchamlik va mantiqiy umumlashtirishga xizmat qiladi. O'zbek tilidagi birliklarda esa *ilm, bilim, tajriba, haqiqat, tafakkur* kabi leksemalar didaktik mazmun, xalqona obrazlilik va gnoseologik xulosani kuchaytiradi. Har ikki tilda metafora yetakchi stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi, biroq ingliz tilida u ko'proq abstrakt tushunchani konseptual model sifatida ifodalasa, o'zbek tilida bilim va tajriba kabi tushunchalar tarbiyaviy hamda qadriyatga yo'naltirilgan mazmun bilan boyiydi.

Stilistik vositalar bo'yicha tahlil qilinganda, metafora eng faol vosita sifatida ajralib turadi. Antiteza va parallelizm esa ilmiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Gradatsiya va takror birlikning ta'sirchanligini oshiradi, paradoks esa o'quvchini chuqurroq fikrlashga undaydi. O'zbek tilidagi birliklarda esa takror, parallel qurilish va xalqona sintaktik muvozanat ko'proq seziladi.

Semantik jihatdan ingliz va o'zbek aforistik birliklarida ilmiy leksika uch asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, u bilish jarayoni va tafakkur faoliyatini nomlaydi. Ikkinchidan, ilmiy tushunchani obrazli va umumlashtiruvchi mazmun bilan boyitadi. Uchinchidan, tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum didaktik-pragmatik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *knowledge* yoki *bilim* leksemasi faqat "*ma'lumotga ega bo'lish*" ma'nosini emas, balki *kuch, taraqqiyot, imkoniyat, kamolot* va *ijtimoiy faollik* kabi tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Shu jihatdan ilmiy leksika aforistik kontekstda keng semantik maydonga ega bo'ladi.

Natijalar ingliz va o'zbek aforistik birliklari pragmatik yo'nalishi bilan ham farqlanishini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi birliklarda ilmiy tushunchaning konseptual ta'rifi va mantiqiy umumlashtirilishi yetakchi bo'lsa, o'zbek tilidagi birliklarda

tarbiyaviy, didaktik va qadriyatga yo‘naltirilgan mazmun kuchliroq seziladi. Bu farq ikki tilning grammatik qurilishi bilangina emas, balki ularning madaniy-kommunikativ an‘analari bilan ham bog‘liq. Shu bilan birga, har ikki tilda ham ilmiy leksika inson tafakkuri, tajribasi, bilish faoliyati va haqiqatni anglash jarayonini ifodalovchi muhim semantik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

MUNOZARA

Olingan natijalar ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklar murakkab ilmiy-kognitiv tushunchalarni qisqa, obrazli va pragmatik jihatdan ta’sirchan shaklda ifodalashini ko‘rsatadi. Bu holat aforizm va aforistik birliklarni faqat badiiy yoki publitsistik hodisa sifatida emas, balki ilmiy, didaktik va lingvokulturologik mazmunga ega bo‘lgan matniy birlik sifatida ham o‘rganish zarurligini asoslaydi. Aforistik birlikning ta’sir kuchi uning qisqaligi, mazmuniy zichligi, obrazlilik va umumlashtiruvchi xususiyatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bunday birliklar ilmiy tushunchalarni keng auditoriyaga tushunarli, esda qolarli va ta’sirchan shaklda yetkazishda muhim kommunikativ vosita sifatida qaralishi mumkin.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilmiy leksika aforistik birlik tarkibida oddiy terminologik vazifani bajarish bilan cheklanmaydi. U ko‘pincha metaforik, gnoseologik va didaktik mazmun kasb etadi. Masalan, *“knowledge”* leksemasi *“Knowledge is power”* birlikida bilish jarayonining oddiy nomi sifatida emas, balki inson imkoniyatlari, ijtimoiy faollik va intellektual salohiyat belgisi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek tilidagi *“Bilim – taraqqiyot kaliti”* birlikida esa bilim taraqqiyotga olib boruvchi asosiy vosita sifatida ifodalanadi. Har ikki misolda ham ilmiy-kognitiv leksema bevosita lug‘aviy ma’nodan chiqib, obrazli va umumlashtiruvchi mazmunni yuzaga chiqaradi. Bu jarayon ilmiy tushunchaning aforistik kontekstda semantik kengayishini ko‘rsatadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida metafora, antiteza, parallelizm, gradatsiya va paradoks kabi stilistik vositalar umumiy vazifani – ilmiy tushunchani ixcham, esda qolarli va ta’sirchan shaklda ifodalashni bajaradi. Biroq ularning pragmatik yo‘nalishi har ikki tilda bir xil emas. Ingliz tilidagi aforistik birliklarda konseptual ixchamlik, mantiqiy umumlashtirish va individual tafakkurga urg‘u kuchliroq seziladi. O‘zbek tilidagi birliklarda esa didaktik mazmun, pand-nasihat ruhi, ma’naviy-axloqiy xulosa va xalqona obrazlilik nisbatan faolroq namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi ilmga oid aforistik birliklarda xalqona obrazlilik va tarbiyaviy mazmunning kuchli bo‘lishi o‘zbek maqollari hamda hikmatli iboralarining og‘zaki ijod an‘anasi bilan bog‘liq. Shomaqsudov va Shorahmedov tomonidan izohlangan ko‘plab maqollarda inson kamoloti, mehnat, bilim va odob kabi tushunchalar hayotiy tajriba bilan bog‘lab yoritiladi. Shu sababli *“ilm”*, *“bilim”* va *“tajriba”* leksemalari o‘zbekcha birliklarda ko‘pincha ma’naviy-axloqiy xulosa bilan uyg‘unlashadi.

Ingliz tilidagi birliklarda esa ilmiy-kognitiv tushunchalar ko‘proq mantiqiy umumlashtirish va konseptual aniqlik orqali beriladi. Masalan, *“Knowledge is power”* ifodasi ikki komponentdan tashkil topgan bo‘lsa-da, unda bilimning ijtimoiy, siyosiy va intellektual qudrat sifatidagi mazmuni mujassamlashgan. O‘zbek tilidagi *“Bilim –*

taraqqiyot kaliti” esa shu g‘oyani milliy-didaktik ohangda ifodalaydi: bilim shaxsiy qudratgina emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun zarur vosita sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotda aniqlangan farqlar mutlaq xususiyat sifatida emas, balki tahlil qilingan materiallar doirasidagi tendensiya sifatida baholanishi lozim. Chunki aforistik birliklar manba turi, mualliflik maqomi, qo‘llanish konteksti va madaniy muhitga qarab turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy-aforistik birliklarning umumiy hamda farqli jihatlarini ko‘rsatadi, biroq kengroq korpus asosida olib boriladigan izlanishlar davomida bu yo‘nalishda yanada aniq xulosalarga kelish mumkin.

O‘rganilgan materiallar ilmiy leksikaning aforistik kontekstda bir necha muhim vazifani bajarishini ko‘rsatdi. Avvalo, u *bilim, tajriba, nazariya, amaliyot* va *haqiqat* kabi ilmiy tushunchalarni nomlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning obrazli talqinini yaratadi hamda o‘quvchi yoki tinglovchiga muayyan g‘oya, baho va xulosa yetkazadi. Demak, ilmiy leksika ingliz va o‘zbek aforistik birliklarida mazmuniy asosni shakllantiruvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda aforistik birliklar keng korpus asosida emas, tanlangan misollar asosida tahlil qilindi. Shu sababli chiqarilgan xulosalar ingliz va o‘zbek tillaridagi barcha aforistik birliklar uchun umumiy qoida sifatida emas, balki kuzatilgan asosiy tendensiyalar sifatida baholanishi lozim. Kelgusida mavzuni kengroq materiallar asosida, aforizmlarning manbasi, mualliflik maqomi, tarjima xususiyatlari va turli nutqiy kontekstlarda qo‘llanishi jihatidan chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy leksika asosida shakllangan aforistik birliklar ilm, bilim, fan, tafakkur, tajriba, nazariya, amaliyot va haqiqat kabi tushunchalarni ixcham, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashini ko‘rsatdi. Bunday birliklarda ilmiy leksika faqat termin sifatida emas, balki kengroq ma’no kasb etadi. U bilish jarayoni, inson tafakkuri, tajriba va taraqqiyot bilan bog‘liq mazmunni ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlil davomida metafora, antiteza, parallelizm, gradatsiya va paradoks kabi stilistik vositalar ilmiy mazmundagi aforistik birliklarning ta’sirchanligini oshirishi aniqlandi. Metafora ilmiy tushunchani obrazli ifodalaydi, antiteza qarama-qarshi tushunchalar orqali asosiy fikrni kuchaytiradi, parallelizm esa ifodaning ritmik va mazmuniy yaxlitligini ta’minlaydi. Gradatsiya fikrning bosqichma-bosqich kuchayishini, paradoks esa bilimning murakkab va chuqur mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillaridagi aforistik birliklarda umumiy va farqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Har ikki tilda ilmiy leksika obrazli ma’no hosil qiladi va bilim, tafakkur hamda tajriba haqidagi umumlashtiruvchi fikrni ifodalaydi. Ingliz tilidagi birliklarda ko‘proq ixchamlik va mantiqiy umumlashtirish sezilsa, o‘zbek tilidagi birliklarda didaktik mazmun, xalqona obrazlilik va tarbiyaviy xulosa kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Maqolada “*aforistik birlik*” termini keng ma’noda qo‘llandi. Chunki tahlilga kiritilgan birliklarning barchasi tor ma’nodagi muallif aforizmi emas. Ular orasida muallif aforizmlari, xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va muallifi aniq bo‘lmagan aforistik ifodalar ham mavjud. Bunday yondashuv ingliz va o‘zbek tillaridagi turli janrdagi ixcham, obrazli va umumlashtiruvchi birliklarni qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

Umuman, ilmga oid aforistik birliklarda ilmiy leksika oddiy atama sifatida emas, balki obrazli va pragmatik mazmun yaratuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalaridan stilistika, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va ilmiy uslubni o‘qitishda foydalanish mumkin. Kelgusida mavzuni kengroq materiallar asosida, aforistik birliklarning mualliflik maqomi, tarjima xususiyatlari va turli kontekstlarda qo‘llanishi jihatidan chuqurroq o‘rganish tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amoseva, N. N. (2015). Semantic analysis of the aphorism. *Vestnik Permskogo universiteta. Rossiyskaya i zarubezhnaya filologiya*, 4(32), 24–33.
2. Baratova, D. S. (2025). *Ingliz va o‘zbek tillaridagi aforizmlarning stilistik hamda lingvomadaniy xususiyatlari* (PhD dissertation). Toshkent.
3. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). *Corpus linguistics: Investigating language structure and use*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Moscow: Higher School.
5. Gibbs, R. W. (1994). *The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning*. London: Edward Arnold.
7. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman.
8. Hui, A. (2019). *A theory of the aphorism: From Confucius to Twitter*. Princeton: Princeton University Press.
9. Hyland, K. (2009). *Academic discourse: English in a global context*. London: Continuum.
10. Hyland, K., & Shaw, P. (Eds.). (2016). *The Routledge handbook of English for academic purposes*. London: Routledge.
11. Ivanov, L. Ye. (2021). Linguistic theory of aphorism. *The Humanities and Social Sciences*, 1, 1–12.
12. Crystal, D., & Davy, D. (1969). *Investigating English style*. London: Longman.
13. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
14. Kövecses, Z. (2020). *Extended conceptual metaphor theory*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Kudryashova, I. S. (2016). Aphorism as a linguistic and cultural phenomenon. *Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 19. Lingvistika i mezhkulturnaya kommunikatsiya*, 3, 166–177.
16. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago Press.
17. Madvaliyev, A. (2020). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
18. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 5, 3–16.
19. Mamataliyeva, N. X. (2024). *Ingliz va o‘zbek tillaridagi aforistik birliklarning semantik-struktur xususiyatlari* (PhD dissertation). Toshkent.

20. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A handbook*. Westport: Greenwood Press.
21. Morson, G. S. (2012). The aphorism: Fragments from the breakdown of reason. *New Literary History*, 43(3), 423–446.
22. Narmuratov, Z. R. (2022). *Ingliz va o'zbek tillarida "ta'lim, bilim" konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi* (PhD dissertation abstract). Termiz.
23. Norrick, N. R. (1985). *How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs*. Berlin: Mouton.
24. Odyntsova, H., & Kondratieva, O. (2019). Aphorisms as means of interpreting linguistic terms. *Science and Education*, 4(10), 52–57.
25. Rixsiyeva, H. A. (2022). Lingvokulturologicheskiy analiz aforizmov na materiale uzbekskogo yazyka. *Science and Education*, 3(7), 28–36.
26. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: Sangzor.
27. Safarov, Sh. (2023). *Tilshunoslik terminlari lug'ati*. Toshkent: Lesson Press.
28. Swales, J. M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge: Cambridge University Press.
29. Wales, K. (2011). *A dictionary of stylistics* (3rd ed.). London: Routledge.
30. Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. (1990). *Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati*. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh tahririyati.

REFERENCES

1. Amoseva, N. N. (2015). Semantic analysis of the aphorism. *Bulletin of Perm University. Russian and Foreign Philology*, 4(32), 24–33.
2. Baratova, D. S. (2025). *Stylistic and linguocultural features of aphorisms in English and Uzbek* (PhD dissertation). Tashkent.
3. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). *Corpus linguistics: Investigating language structure and use*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Crystal, D., & Davy, D. (1969). *Investigating English style*. London: Longman.
5. Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Moscow: Higher School.
6. Gibbs, R. W. (1994). *The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning*. London: Edward Arnold.
8. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman.
9. Hui, A. (2019). *A theory of the aphorism: From Confucius to Twitter*. Princeton: Princeton University Press.
10. Hyland, K. (2009). *Academic discourse: English in a global context*. London: Continuum.
11. Hyland, K., & Shaw, P. (Eds.). (2016). *The Routledge handbook of English for academic purposes*. London: Routledge.
12. Ivanov, L. Ye. (2021). Linguistic theory of aphorism. *The Humanities and Social Sciences*, 1, 1–12.
13. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
14. Kövecses, Z. (2020). *Extended conceptual metaphor theory*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Kudryashova, I. S. (2016). Aphorism as a linguistic and cultural phenomenon. *Moscow University Bulletin. Series 19: Linguistics and Intercultural Communication*, 3, 166–177.
16. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago Press.
17. Madvaliyev, A. (2020). *Explanatory dictionary of the Uzbek language: Nearly 80,000 words and word combinations*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing House.
18. Mahmudov, N. (2012). In search of ways for comprehensive language research. *Uzbek Language and Literature*, 5, 3–16.

19. Mamataliyeva, N. X. (2024). *Semantic and structural features of aphoristic units in English and Uzbek* (PhD dissertation). Tashkent.
20. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A handbook*. Westport: Greenwood Press.
21. Morson, G. S. (2012). The aphorism: Fragments from the breakdown of reason. *New Literary History*, 43(3), 423–446.
22. Narmuratov, Z. R. (2022). *A linguocultural study of paremias related to the concepts of “education” and “knowledge” in English and Uzbek* (PhD dissertation abstract). Termez.
23. Norrick, N. R. (1985). *How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs*. Berlin: Mouton.
24. Odyntsova, H., & Kondratieva, O. (2019). Aphorisms as means of interpreting linguistic terms. *Science and Education*, 4(10), 52–57.
25. Rixsiyeva, H. A. (2022). Linguocultural analysis of aphorisms based on the Uzbek language. *Science and Education*, 3(7), 28–36.
26. Safarov, Sh. (2006). *Cognitive linguistics*. Jizzakh: Sangzor.
27. Safarov, Sh. (2023). *Dictionary of linguistic terms*. Tashkent: Lesson Press.
28. Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. (1990). *Book of wisdom: An explanatory dictionary of Uzbek proverbs*. Tashkent: Main Editorial Office of the Uzbek Soviet Encyclopedia.
29. Swales, J. M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge: Cambridge University Press.
30. Wales, K. (2011). *A dictionary of stylistics* (3rd ed.). London: Routledge.